

DUNYOVII DAVLATNING IJTIMOIY JIHALTLARI

Seitov A.P.

S.f.d. (DSc), IPMI JIDU

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12746428>

*Annotation.* 2021-yilda O'zbekistonda amalga oshirilgan Konstitutsiyaviy islohotda davlatning dunyoviy xususiyati Asosiy qonunda mustahkamlab qo'yildi. Dunyoviy davlat deganda hamma uchun majburiy bo'lgan rasmiy dinning yo'qligi, diniy institutlar va qoidalarni huquq manbalari sifatida tan olinishini va ularning davlat organlari faoliyatiga ta'sirini inkor etish, dinni davlatdan ajratish tushuniladi. Davlatning dunyoviyligi dinga qarshi kurashmaydi, aksincha, ularning shakllarining xilma-xilligida rivojlanishi uchun barcha qulay shart-sharoitlarni yaratadi va shu orqali e'tiqod erkinligini ta'minlaydi. Dunyoviylik O'zbekistonda kuchli ijtimoiy davlat, ya'ni barcha fuqarolar uchun teng turmush sharoitlarini yaratishga fidoyi davlat barpo etishning muhim shartidir.

*Kalit so'zlar:* islohot, Konstitutsiya, dunyoviy belgi, din, jamiat, fan, taraqqiyot, huquqlar, e'tiqod erkinligi.

СОЦИАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ СВЕТСКОГО ГОСУДАРСТВА

*Аннотация.* Проведенная в 2021 году в Узбекистане Конституционная реформа закрепила в Основном законе светский характер государства. Светское государство означает отсутствие официальной, обязательной для всех религии, отрицание признания религиозных установлений и правил в качестве источников права и их влияния на деятельность государственных органов, отделение религии от государства. Светскость государства не борется с религией, а наоборот, создает все благоприятные условия для их развития во многообразии их форм, тем самым, обеспечивая свободу вероисповедания. Светскость является важным условием построения в Узбекистане сильного социального государства, а именно государства, которое посвящено созданию равных условий жизни для всех граждан.

*Ключевые слова:* реформа, Конституция, светский характер, религия, общество, наука, развитие, права, свобода вероисповедания.

O'zbekistonning so'nggi yillardagi muhim yutuqlaridan biri bu diniy erkinlikni ta'minlash sohasidagi ijobiy rivojlanish bo'ldi, bu mamlakatimiz fuqarolariga erkin mafkuraviy va konfessional tomondan o'zligini o'rGANISH imkoniyatini ochib berdi.

Xususan, AQSh Davlat departamenti 2024 yilda O'zbekistonni, diniy erkinlik borasida ijobjiy o'zgarishlar qilinmagan alohida nazorat ostidagi davlatlar ro'yxatiga kiritmadı. Avvalroq, O'zbekiston 2020 yilda ushbu ro'yxatdan chiqarilgan edi.

Shu bilan birga, O'zbekistonda 2021 yil noyabr oyidan boshlab umumxalq referendumi asosida amalga oshirilayotgan Konstitutsiyaviy islohot Asosiy qonunda davlatning dunyoviylik mohiyatini mustahkamladi.

«O'zbekiston dunyoviy davlat va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi», - dedi Shavkat Mirziyoev.

Shunday qilib, yangilangan Konstitutsiyaning birinchi moddasida mustahkamlangan O'zbekistonning suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat maqomi mamlakatning hech qachon o'zgarmaydigan taraqqiyot yo'li va kelajagini belgilovchi beshta asos bo'ldi.

Afsuski, bir qator kuzatuvchilarda O'zbekistonning bu pozitsiyasi savollar tug'dirdi. Bularning barchasi jamiyatda, din va davlatning dunyoviy tabiat qarama-qarshi qo'yilishi borasidagi noto'g'ri tezis stereotipining saqlanib qolishi bilan bog'liq.

Shuni anglash kerakki, millati, tili, dini va ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, har bir fuqaroning vijdon erkinligini ta'minlash, barcha diniy konfessiyalarning erkin faoliyat yuritishi uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish, O'zbekistonda millat va e'tiqod egalarning tinch-totuv yashashini ta'minlash siyosati kelajakda ham davom etadi.

«Jamiyatimizda har qanday radikallashuv yoki dindan siyosiy maqsadlarda foydalanshga hech qachon yo'l qo'yilmaydi», - deb ta'kidladi Shavkat Mirziyoev.

Ya'ni, dunyoviy davlat - bu davlatning konstitutsiyaviy va huquqiy xarakteristikasi bo'lib, dinni davlatdan ajratish, ularning faoliyat sohalarini chegaralashni anglatadi.

Dunyoviylik davlat ateizmiga teng degan tushuncha, bu chuqur yanglishish. Bunday emas, davlatning dunyoviy tabiat diniy jamoalarga davlat byudjetidan moliyaviy yordam ko'rsatishga umuman to'sqinlik qilmaydi.

Dunyoviy davlat hamma uchun rasmiy, majburiy dinning yo'qligini, diniy muassasalar va qoidalarni huquq manbai sifatida tan olish va ularning davlat organlari faoliyatiga ta'sirini rad etishni, dinni davlatdan, maktablardan ajratish va barcha fuqarolarga o'z yurisdiksiyasini o'tkazadigan diniy sudlarning mavjud emasligi anglatadi.

Bularning barchasi, bunday chegaralanish O'zbekiston jamiyatidagi barcha dinlarning rivojlanishini hech qanday tarzda cheklamasligini yaqqol ko'rsatib turibdi.

Ikkinci noto'g'ri tushuncha, bu bitta davlatda bitta din bo'lishi kerak deb fikrlash.

Ko'pgina rivojlangan mamlakatlar o'z vaqtida bu bosqichdan o'tishgan, ushbu xalqlar hayotidagi qorong'u davrlar deb ataladigan inkvizitsiyalarning gulxanlari davrini eslaylik. Xo'sh, nima uchun o'sha xatoga yana yo'l qo'yish kerak? Aynan shunday tarixiy davrda jaholatparastlik, yangilikni jismoniy yo'q qilish, iqtisodiy rivojlanishda ortga ketish, fan sohasidagi turg'unlik va hokazolar oldingi o'ringa chiqadi. Bolalarimiz uchun biz shunday kelajakni orzu qilamizmi?

Bundan tashqari. Mamlakatimizda aholining o'sishi mehnat oqimlarining bir qismi xorijiy mamlakatlarga yo'naltirilishiga olib keladi. Tasavvur qiling-a, Rossiya Federatsiyasi dunyoviy davlat tamoyilidan voz kechib, mehnat muhoxirlarimizni yaxshi maoshli ish uchun dinlarini o'zgartirishga majbur qilishini? Tasavvur qiling-a, xitoylik smartfon yoki elektromobil sotuvchilari, ular o'z daromadlariga ega bo'lislari uchun mijozlaridan kommunistik partiya biletini talab qilishini?

Demak, davlatning dunyoviyligi dinga qarshi kurashmaydi, aksincha, ularning turli shakllarida rivojlanishi uchun barcha qulay sharoitlarni yaratadi va shu bilan din erkinligini ta'minlaydi.

Shu bilan birga, jamiyatdagi dunyoviylilik quyidagi tamoyillar bilan qo'llab-quvvatlanadi:

- 1) davlat va diniy uyushmalar ajratilgan, bir-birining ishlariga aralashmaydi, hech qanday rasmiy (davlat) dini mayjud emas;
- 2) davlat mafkuraviy xilma-xillikni e'lon qiladi va jamiyatning diniy sohasidagi monopolizmni rad etadi;
- 3) davlat o'zini huquqiy deb e'lon qiladi va o'z fuqarolariga vijdon, e'tiqod, din va boshqa erkinliklarni kafolatlaydi, diniy qonunlar va aqidalar esa qonun manbai hisoblanmaydi;
- 4) ta'lim va tarbiyaning davlat tizimi dunyoviy xususiyatga ega bo'lib, dinga nisbatan u yoki bu munosabatni shakllantirish maqsadini ko'zlamaydi;
- 5) vijdon erkinligi, diniy e'tiqodlarni tanlash va tarqatish masalalari - bu insonning shaxsiy hayotidagi ma'naviy erkinlik sohasi bo'lib, unga na davlat, na xususiy shaxslar aralashishga haqli emas;
- 6) diniy uyushmalarning faoliyati qat'iy qonun hujjalariга muvofiq amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytganda, dunyoviylik O'zbekistonda kuchli ijtimoiy davlat, ya'ni ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy holati va mavqeidan qat'i nazar, barcha fuqarolar uchun teng yashash sharoitlarini yaratishga bag'ishlangan davlat qurishning muhim shartlaridan biridir.

Shu bilan birga, fuqarolarning sog'liqni saqlash, ta'lim va uy-joy kabi asosiy ehtiyojlari davlat tomonidan ta'minlanadi va maxsus ijtimoiy dasturlar va qonunlar bilan tartibga solinadi.

Ijtimoiy davlat - bu o'z fuqarolarini ijtimoiy himoya qilish vaadolat tamoyillariga asoslangan davlat. U barcha fuqarolari uchun munosib turmush darajasini ta'minlaydi, eng muhtojlarga ijtimoiy yordam va himoyani ta'minlab beradi.

Ahamiyatliki, zamonaviy dunyoda aksariyat davlatlar (Fransiya, Germaniya, AQSh, Shvesiya, Yaponiya, Finlyandiya va boshqalar) bir vaqtning o'zida dunyoviy va ijtimoiyidir. Xuddi shu paytni o'zida, bu davlatlarning dunyoviyligi ushbu mamlakat fuqarolarining ayrimlarini chuqur dindor bo'lishiga to'sqinlik qilmaydi, masalan, Amerika Qo'shma shtatlarida.

Siyosiy vaziyat va iqtisodiy rivojlanishga qarab, davlatlar ijtimoiy masalalarga va o'z fuqarolarini himoya qilishga bo'lgan munosabatini o'zgartirishlari mumkin.

Biroq, ijtimoiy himoya vaadolat zamonaviy jamiyat farovonligining asosi ekanligini tushunish juda muhimdir.

Shu munosabat bilan O'zbekiston ham o'z ijtimoiy sohasini rivojlantirishning asosi sifatida dunyoviy va ijtimoiy davlatni tanladi.

Shunday qilib, ijtimoiy munosabatlar sub'ekti sifatida insonlar sonini ko'paytirish muammosi davlat va uning institutlarining ustuvor vazifasidir, shaxsning ijtimoiy ehtiyojlarini himoya qilish uchun me'yoriy-huquqiy baza yaratilgan va amalda faoliyat yuritmoqda, jamiyatning butun siyosiy va iqtisodiy tizimi esa ijtimoiy muammolarni hal qilishda ishtirok etmoqda.

O'zbekiston davlat sifatida barcha fuqarolarini raqobatbardosh bozor iqtisodiyoti sharoitida ma'lum bir hech bo'limganda minimal farovonlik bilan ta'minlashga intilmoqda.

Asosiy maqsadi shaxs sifatidagi inson bo'lgan, ijtimoiy tuzilmani tashkil etishning bunday shaklini bunyod qilish jarayoni davom etmoqda, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va diniy munosabatlar yuqori darajada rivojlanmoqda, bu fuqarolarning huquq va erkinliklarining huquqiy kafolatini, hamda O'zbekistonda davlat qurilishining takomillashini ta'minlaydi.